

**XITOYNING MARKAZIY OSIYOGA BO'LGAN GEOSIYOSIY, GEOIQTISODIY
MANFAATLARI VA "YUMSHOQ KUCH" TA'SIRI**

Nodirbek G'oibnazarov

Guliston Pedagogika Instituti talabasi.

nodirbekgoibnazarov@gmail.com

ANOTATSIYA: Markaziy Osiyo mintaqasi keng hududlarni o'z ichiga oladi. Chegaralari sharqda Xitoydan g'arbda Kasbiy dengizigacha, shimolda Rossiyadan janubda Eron va Afg'onistonga qadar cho'zilgan. Mintaqamiz dunyoning katta kuch markazlari orasida joylashgani va bu joylashuvning o'zigina, kuch markazlari tomonidan mintaqamiz uchun raqobatning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shu kuch markazlaridan biri Xitoy Xalq Respublikasidir. Ushbu maqolamizda Xitoy davlati va mintaqamizning chuqur ildiz otib ulgurgan aloqalarini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: Xitoy, Markaziy Osiyo, middle power, xalqaro munosabatlar, o'zaro manfaatlar.

KIRISH: Dastlab Xitoy Xalq Respublikasi haqida qisqacha malumot berib o'tsam. Xitoy Xalq Respublikasi Ikkinchi jahon urushidan keyin, ko'plab urushlar natijasida 1949- yil 1-oktabrda Pekin shahrida tuzildi. Qisqa vaqtda SSSR ko'magida Sharqiy Turkiston, Tibet va Ichki Mo'g'ilistonni qo'shib oldi. Mao Szedun XXR sotsializm qurishini e'lon qildi va hususiy mulkni davlat mulkiga aylantirishni boshladi. Xitoyning yuz yillik strategiyasiga ko'ra, 2050- yilga borib yuqori farovonlikka erishish maqsad qilingan. Xitoy zamonaviy sotsializmni qurish yo'lidan olg'a ketmoqda va buni uddalamoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. COVID-19 epidemiyasidan keyingi davrda Xitoy o'zining 14- besh yillik rejasini 2021-2025 dasturini ishlab chiqdi va uzoq muddatli 2050- yil strategiyasini bosqichma-boshqich hayotga tadbiiq qilib bormoqda. Yillik YAIM miqdorini 13- besh yillikda 100 trln yuan(14 trln dollar)dan oshirdi. Hozirgi kunga kelib bu ko'rsatkich 18,5 trln dollardan ortiqroqdir. Dunyodagi eng katta ijtimoiy ta'minot tizimini yaratdi va 2012- yildan buyon har yili 45 mlrd dollar miqdorida ijtimoiy ta'minot tizimiga sarmoya kiritmoqda. Urbanizatsiya darajasini 65 %ga yetkazdi. 13- besh yillik davrida qashshoq aholi soni qariyb 60 mlnga kamaydi. 2025- yilgacha bu ko'rsatkichni yanada oshirish yo'lidan bormoqda.

Xitoy hukmdorlari Markaziy Osiyoning ahamiyatini Chjan Syanning G'arbga qilgan sayohatidan keyin anglab yetdi. O'sha davrdan boshlab Xitoy hukmdorlari Markaziy Osiyoning milliy xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, madaniy, iqtisodiy va savdo faoliyatida katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor bera boshladi va bu hududlar bilan do'stona yaqin aloqalarni olib bora boshladi. Markaziy Osiyodagi qudratli sulolalar Xitoyni ochilishi uchun harakat qilishdi va bu o'z navbatida Xitoyning G'arb bilan aloqalarida muhim o'rin tutdi.

Xitoy katta maqsadlarni o'z oldiga reja qilib qo'ygani hech kimga sir emas. 1991- yil SSSR qulab Sotsializm qoralanganda ham Xitoy o'z yo'lidan qaytmadi va zamonaviy Sotsialistik Xitoyni qurishda davom etmoqda. Hukumat maqsadlari va rejalari markazida Sotsializm, Mao Szedun, Deb Siyoupin va Si Szinpinning zamonaviy sotsializm mafkuralari yotadi. Bu g'oyalar asosida Buyuk Xitoy davlatini qurish va jahonda yagona sotsializm jamiyatini o'rnatish maqsadlari, hozirgi dunyo tuzumi uchun ma'lum darajada hatarli ekanligini sezish

mumkin. Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Qoʻmitasi yangi yerlarni oʻzlashtirish va yumshoq kuch taʼsirini oshirish yoʻlida Xitoyning dunyodagi birinchi darajali sanoat qudrati va kreditorlik qobiliyatidan foydalanmoqda. Hoʻsh shunday holatda Xitoyning Markaziy Osiyo bilan yaqin aloqalaridan qanday manfaat bor? Birinchi galda aytishimiz kerakki mintaqamiz bilan yaqin aloqalardan maqsad Markaziy Osiyoning sivilizatsion uygʻonmasligidir. Xitoy shu vaqtgacha mintaqamizga sarmoya kiritgan boʻlsa, asosan barqarorlik uchun kiritgan. Yani mintaqamiz tinch boʻlsa iqtisodiy jihatdan Xitoyga qaram boʻlsa, Shinjon- Uygʻur avtanom oʻlkasi tinch boʻladi. KHSHT tashkiloti doirasida ham, boshqa mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham mintaqaga kiritilgan asosiy sarmoyalar terrorizm va eksterimizmga qarshi kurash uchun boʻlganiga guvoh boʻlamiz. Rossiyada uyushtirilgan katta teraktdan soʻng Xitoy hukumati rasmiy ravishda Rossiya tasir hududiga kiradigan Markaziy Osiyoga ikkita oliy darajadagi delegatsiya joʻnatdi. Bu oʻz navbatida Rossiyaga nisbatan signal boʻldi deyish mumkin. Bunday vaziyatda Xitoy delegatsiyalarining Markaziy Osiyoga qilingan oliy tashriflar albatta mintaqaga uchun ham oʻz navbatida manfaatlidir. Ayni hozirgi vaqtda mintaqamiz, Rossiyaga qaramlikdan qutulish uchun muqobil yoʻllar qidirayotgani hech kimga sir emas. Yuqorida aytganimizdek Xitoy delegatsiyalarining Markaziy Osiyoga tashrifi bu mintaqaga uchun kurashda Xitoy katta muvaffaqiyatlarga erishganidan darak beradi. Gʻarb Yaqin Sharq bilan, Rossiya Ukraina bilan band boʻlib turgan vaqtda Xitoy vaziyatdan yaxshi foydalandi va strategik jihatdan Yevrosiyoning markazida joylashgan mintaqamizda oʻz tasirini mustahkamladi.

Xitoy hukumati mintaqaga davlatlari orasidan Qozogʻistonga koʻproq eʼtibor berishga harakat qiladi. Buni mintaqaga bilan boʻlgan savdo aloqalaridan ham bilish mumkin. 2023- yilda Markaziy Osiyo va Xitoy oʻrtasida savdo aylanmasi 89 mlrd dollarni tashkil etgan boʻlsa, shundan 41 mlrd dollari Qozogʻiston bilan boʻlgan savdoga tegishli. Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari va mintaqaga muammolari haqida ham biroz toʻxtalib oʻtsak.

Birinchiidan Markaziy Osiyoda ayniqsa Qozogʻiston keng hudud va katta imkoniyatlarga ega boʻlgan hudud. Qozogʻiston hududi Markaziy Osiyoning bir qismi boʻlishi bilan birga Yevrosiyoning markazida joylashganligi ham muhimdir. Unda Yevrosiyo mintaqasining ikki tomonlama ham antributlari mavjud. Bu unga Xalqaro tartibotda katta oʻyinchi boʻlishga imkoniyat beradi va buni amalga oshirish uchun Xitoyning yordami zarur. Lekin Qozogʻiston katta oʻyinchi boʻlishni istasa faqatgini Xitoy bilan emas balki barcha qoʻshnilari bilan ishonchli sheriklik aloqalarini oʻrnatishi kerak deb hisoblayman. Mintaqamizdagi “middle power” darajasiga koʻtarilgan yagona davlat sifatida albatta Qozogʻiston muhim oʻyinchi boʻla olishini sezish mumkin.

Ikkinchiidan Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy juda beqaror mintaqaga deb hisoblaydi. Chunki mintaqada juda koʻp madaniyatlar, dinlar va etnik birliklar mavjud va bu mintaqada hech qanday qiyinchiliklarsiz notinchlik chiqarish imkonini yaratadi. Xitoy esa ayni shu notinchliklarga rozi boʻlolmaydi.

Uchinchiidan. Mintaqada xavfsizlik muhiti juda beqaror boʻlib Afgʻonistondagi mojarolar mintaqaga yoyilish ehtimoli bor deb qaraladi.

Toʻrtinchidan. Mintaqaga tashqi omillar juda katta tasir koʻrsatadi. Hususan mintaqaga AQSH, Turkiya, Rossiya, Yevropa, Eron, Hindiston kabi kuchlarning tasiri anchayin sezilarli. Xitoy mintaqada boʻlgan barcha nizolarning ortida AQSH turganini davo qiladi. Bazi vaqtlarda hatto mintaqaga davlatlarining AQSHga oʻz harbiy bazalarini bergani ham mintaqada AQSH tasirining oshganidan dalolat beradi.

Beshinchidan. Mintaqa katta miqdorda neft va tabiiy gaz kabi strategik zahiralarga ega. Xitoy esa juda katta energiya iste'molchisi sifatida mintaqa bilan yaqin aloqalar olib borishga harakat qiladi. Mintaqa mustaqillikka chiqqani bu imkoniyatdan foydalanish uchun yo'l ochilishiga olib keldi. Tabiiy ravishda mintaqamizdagi ayniqsa Qozog'istondagi strategik zahiralardan quruq qolish havotiri Xitoyni mintaqa bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini olib borishga undaydi.

Oltinchidan. Markaziy Osiyo Yevraosiyoning markazida joylashgan va dengizga chiqish imkoniyati yo'q mintaqadir. Uning juda katta strategik zahiralarga egaligi, agar bu zahiralarni sotishni istasalar albatta qo'shni davlatlar hududi orqali o'tishi kerakligi hech kimga sir emas. Xitoy bu holatdan manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi va Osiyo-Tinch okeani yo'nalishida ko'priq vazifasini o'tamoqchi.

Yettinchidan. Sovuq urushdan keyingi davrda butun dunyoga islom fundamentalizmi keng yoyildi. Bu havf Markaziy Osiyoga ham yoyilish ehtimoli yo'q emas. Agarda bu amalga oshadigan bo'lsa Xitoyning shimoli-g'arbiy hududlarini ham qamrab olish havfi ostida qoladi. Bu esa Xitoyning barqarorligiga va tinchligiga rahna soladi.

Xitoy hukumati 90- yillar o'rtalarida Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatini va konsepsiyalari belgilab oldi. Uni quyidagicha umumlashtirish mumkin: Birinchidan yaxshi qo'shnichilik va tinch-totuv yashashi, ikkinchidan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish, uchinchidan barcha mamlakatlar xalqlarining tanlovini hurmat qilish. Lekin bu vaqtda Xitoy o'z g'oyalarini ilgari surish, ta'sirini oshirish va o'z modelini mintaqada tadbiq qilish uchun hali tayyor emasdi. Xo'sh Xalqaro munosabatlardachi, bizdan nimani istaydi? Birinchi galda Tayvan masalasida Xitoyning muntazam va izchil harakatlarini qo'llab-quvvatlashimizni istaydi va bu masalada biz o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, uning Yagona Xitoy siyosatini qo'llashimizni bildirdik. Ikkinchidan Xitoy hududidagi milliy separatizmni qo'llashimizni hohlamaydi. Bu masalada 90- yillar oxiridan buyon uning harakatlarida beetiborlik ba'zida esa uning manfaatlari ustunligini tan olgan holda aloqalar o'rnatganmiz. Uchinchidan mintaqamiz va Xitoy bugungi kunda dunyo tartibotida yakdil fikrda bo'lishini hohlaydi va bir hil fikrdamiz. Yani Xitoy ham mintaqamiz davlatlari ham ko'pqutubli dunyo tartibini istaydi, lekin o'sha ko'pqutubli dunyo tartibotining asosiy davogarlari mintaqamizning va turkiy xalqlarning tarixiy opponentlaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy bilan aloqalarini, ehtiyotkorlikni unutmagan holda rivojlantirish kerak. Xitoy mintaqamizning rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin bo'lgan gegemondir. U bilan munosabatlarda faol lekin uning gegemonligini unutmagan holda hamkorlik qilish zarur. Xitoy o'z strategiyalarini vaziyatga qarab o'zgartiradigan davlat, lekin Markaziy Osiyoga bo'lgan diplomatik strategiyasini osonlikcha o'zgartirmaydi. Xitoy uchun mintaqa barqarorligi doimo birinchi o'rinda turadi va doimo Sharqiy Turkistonda avj olishi mumkin bo'lgan separatizm, eksterimiz va terrorizmga qarshi turishda mintaqa davlatlari bilan hamkorlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

- 1.С.С.САФОЕВ. Марказий Осиёдаги геасиёсат. ТОШКЕНТ. 2005- йил. 116-120- Бет.
- 2.Ali Hasanov. Geosiyosat. Toshkent "TAMADDUN" 2016- yil.
- 3.O'zbekiston geosiyosati. Toshkent - 2012. 129-131- bet.